



UO'K: 821.111.09

**ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA MILLIYLIK IFODASI:
REALIYALAR VA ULARNING INGLIZCHA TARJIMADAGI TALQINI****THE EXPRESSION OF NATIONAL IDENTITY IN ABDULLA QODIRIY'S NOVEL
“SCORPION FROM THE ALTAR”: REALIA AND THEIR TRANSLATION INTO ENGLISH****ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ
«СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»: РЕАЛИИ И ИХ ОТРАЖЕНИЕ В АНГЛИЙСКОМ ПЕРЕВОДЕ**Toshmatova Saida Abdumutalli qizi 

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada muayyan xalqning milliyligini ifodalovchi lingvomadaniy birliklar — realiyalar hamda ularning badiiy matndagi o'ri tahlil qilinadi. Xususan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romanida uchraydigan realiyalar va ularni ingliz tiliga tarjima qilish tamoyillari yoritib beriladi. Shuningdek, tarjima jarayonida tarjimon duch keladigan milliy-madaniy elementlarni boshqa tilga o'tkazish bilan bog'liq muammolar ochib beriladi hamda ularning tarjimada ifodalanishiga oid masalalar ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвокультурные единицы, выражающие национальную специфику определённого народа, — реалии и их роль в художественном тексте. В частности, анализируются реалии, встречающиеся в романе Абдуллы Кадыри «Мехроbdан чайон», а также принципы их перевода на английский язык. Отражены проблемы передачи национально- культурных элементов, с которыми сталкивается переводчик в процессе перевода.

Abstract

This article examines linguocultural units that reflect the national identity of a given people — realia and their role in literary texts. In particular, it analyzes the realia found in Abdulla Qodiriy's novel “Mehrobdan Chayon” and discusses the principles of their translation into English. The study also highlights the challenges faced by translators in rendering national and cultural elements during the translation process.

Kalit so'zlar: milliylik, realiyalar, lakunalar, milliy semantika, stereotiplar, metafora, mubolag'a, kinoya, etnografik birliklar, ekvivalent

Ключевые слова: национальная специфика, реалии, лакуны, национальная семантика, стереотипы, метафора, гипербола, ирония, этнографические единицы, эквивалент.

Key words: national identity, realia, lacunae, national semantics, stereotypes, metaphor, hyperbole, irony, ethnographic units, equivalence.

KIRISH

Til muloqot quroli bo'lish bilan bir qatorda, ma'lum xalqning milliy tafakkuri, madaniy urf-odatlar va qadriyatlarining ramziy timsoli sifatida ham xizmat qiladi. Tilning xalq bilan, uning madaniyati bilan bog'liqligi isbot talab etmaydigan aksioma hisoblanadi. Til va undagi mavjud leksik birliklar orqali har bir xalqning ma'lum davrdagi madaniyatini, milliyligini, uning o'ziga xos jihatlarini, shuningdek, tarixiy xotirasini ifodalab berish va uni nafaqat kelajak avlodga balkim jahonga namoyon etish mumkin. Zero, til o'z egasining milliy-madaniy hayotini ko'rsatib beruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Yu. D. Apreyan “ Til – bu dunyo modelini yaratadigan tizim. Til birliklarida milliy dunyoqarash yashiringan” deb ta'kidlar ekan, til va uning milliylikni namoyon etishdagi roli naqadar muhim ekanligiga ishora qiladi. Milliylik adabiyotshunoslikda badiiy asarlarda yaratilgan xalqona obrazlar, o'ziga xos bo'lgan milliy muhit, etnografik tafsilotlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, realiyalar hamda madaniy kodlar orqali aks etadi. Yozuvchi yaratgan badiiy asarlarda o'z xalqining ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlar, qadriyatlarini aks ettirishda milliylikni ifodalovchi vositalarning o'ri va roli beqiyosdir. Milliy semantikani namoyon etuvchi til birliklariga ramziy

birliklar, realiyalar, lakunalar, milliy rangdorlikka ega bo'lgan metafora, mubolag'a, kinoya va boshqa badiiy tasvir vositalari, stereotiplar, etnografik birliklar, frazeologizmlar va maqollar, antroponimlar va toponimlar, diniy-madaniy birliklar kiradi. Ushbu maqolada milliylikni ifoda etuvchi – realiyalarning badiiy matndagi o'rni va funksiyasi, ularning tarjimasini muammolari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Realiya atamasi tilshunoslik, tarjimashunoslik, shuningdek, lingvokulturologiya sohalarida qo'llanilib, milliy-madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lgan, boshqa xalqlar madaniyatida to'g'ridan to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan so'z va iboralarni anglatadi. Demak, realiyalar milliylikni ifodalovchi asosiy til birliklari hisoblanadi. Realialar vositasida ma'lum xalqning milliy – madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy hayoti, uning turmush tarzi va mentaliteti namoyon bo'ladi. Realialarni o'rganish bilan bir qatorda ularning tahlili til o'rganish jarayonida alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, muayyan bir tilda so'zlashadigan xalq va uning madaniyatini ham o'rganish, xalq hayotiga chuqurroq kirib borish til o'rganish jarayonini yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

“Realiya” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “realia” – “ashyoviy, haqiqiy” degan ma'nolarni anglatadi. XX asrning 50-yillariga kelib tilshunoslar tomonidan realialarning milliy-madaniy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o'rganish boshlandi. K.H. Hendshin realiya teriminiga dastlabki ta'rifni bergan bo'lsa, keyinchalik jahon tilshunosligida O.Axmanova, L.N.Sobolev, L.S.Barxudarov, V.Gak, L.Kelli, S.Vlaxov, S.Florin, Ye. Vereshagin, V.Kostomarov, G.Tomaxin, S.Tyulenov va Y. Shabanovlar o'z tadqiqot ishlarida ushbu etnomadaniy birliklar- realialarni turli jihatlarini tadqiq etishgan. O'zbek tilshunosligida esa G'.Salomov, K. Jo 'rayev, R. Fayzullayeva, Z. Sodiqov va I.G'afurovlar o'zlarining tadqiqot ishlarida mazkur milliylikni ifoda etuvchi lisoniy birliklarga muayyan darajada munosabat bildirib o'tishgan.

“Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati” da realialarga nisbatan quyidagicha ta'rif berilgan “Realialar u yoki bu xalqning tarixi, madaniyati, maishiy hayoti yoki yashash davriga xos predmet, tushuncha va voqea-hodisalarni ifodalovchi xos so'zlardir. Realialar so'z birikmalari, frazeologizm, maqol, matal ham bo'lishi mumkin”. Ushbu izohdan anglashimiz mumkinki, realialar milliylikni ifodalovchi birliklar sifatida e'tirof etiladi. L. S. Barxudarov ta'rifiga ko'ra “Realialar shunday so'zlarki, ular boshqa tilda gaplashuvchi xalqlarning tillarida, amaliy hayotlarida mavjud bo'lmagan leksik birliklar hisoblanadi”. A.V.Fedorov realialarni hech bir nom bilan atamay, unga nisbatan “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi, ya'ni faqatgina mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida muqobili yo'q bo'lgan so'zlar” degan ta'rifni qo'llaydi[2.175].

G.D.Tomaxin fikriga ko'ra realialar muayyan millat va xalqlarga tegishli moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va h.k. nomlari hisoblanadi[3.10].

L.N.Sobolev realialar xususida quyidagi ta'rifni keltiradi: “Realialar – maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida ekvivalentlari bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalaridir”[4.181].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda realiya tushunchasi ko'pincha milliy-madaniy birliklar sifatida ta'riflanadi. S.Vlaxov va S.Florin realialarni “milliylikning bevosita ifodasi bo'lib, tarjimada lingvokulturologik yondashuvni talab etadigan birliklar” sifatida izohlaydi [1.9]. Demak, realialar badiiy matnning milliy koloritini saqlab qoluvchi asosiy unsurlardan biridir. S.Vlaxov va S.Florinning realialar haqidagi tasnifi nisbatan mukammal hisoblanadi va ular quyidagi sxemada tasniflanadi:

I. Realialarning predmet xarakteriga ko'ra tasniflash:

1. Geografik realialar. Fizik-geografiya yoki aralash fanlar bilan bog'liq bo'lib, ularni aniq chegaralab bo'lmaydi va ular quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi:

a) Fizik- geografiya va meteorologiya sohasiga oid bo'lgan obyekt nomlari.

b) Endemika ya'ni mahalliy, faqat bir hududga mansub bo'lgan yoki o'sha hududda tarqalgan hayvon yoki o'simlik nomlari.

2. Etnografik realialar. Bu turdagi realialar kundalik hayot, moddiy-ma'naviy madaniyat, san'at va musiqaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni o'z ichiga oladi va quyidagicha guruhlanadi:

TILSHUNOSLIK

a) Kundalik faoliyat bilan bog'liq realiyalar: yegulik, ichimlik va boshqalar; kiyim (poyabzal, bosh kiyimlari va ularning qismlarini qo'shgan holda); turar joy, mebel, idish, anjomlar; transport (vosita va haydovchilar); boshqa predmetlar nomi.

b) Mehnat faoliyatiga oid bo'lgan realiyalar: mehnat vositalari; mehnat bilan shug'ullanuvchi odamlar; mehnatni tashkillashtirish.

c) San'at va madaniyatga xos bo'lgan realiyalar: musiqa va raqs; musiqa instrumentlari; folklor; teatr va san'atning boshqa turlari va san'atga oid buyumlar; ijrochilar; an'ana va diniy marosimlar, bayramlar, o'yinlar; ibodat – xizmatchilar va izdoshlar; taqvimlar nomi.

d) Etnik obyektlarni ifodalovchi realiyalar: etnonimlar, laqablar (odatda hazilnamo yoki ranjitadigan); kishilarning yashash joyi bilan bog'liq nomlari.

e) O'lchovlar va pullarni bildiruvchi realiyalar: o'lchov birliklari; pul birliklari.

3. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar.

a) Ma'muriy-hududiy qurilmani bildiruvchi realiyalar: ma'muriy-hududiy birliklar; aholi punktlari; aholi punkti qismlari.

b) Hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarni bildiruvchi realiyalar: hokimiyat organlari; hokimiyat egalari.

c) Ijtimoiy-siyosiy hayotga doir realiyalar: siyosiy tashkilotlar va siyosiy arboblar; vatanparvarlik va ijtimoiy harakatlar; unvonlar, darajalar, murojaatlar; muassasalar; o'quv muassasalari va madaniy tashkilotlar, tabaqa va toifalar; tabaqalarning belgi va ramzlari.

d) Harbiy realiyalar: bo'linmalar, qurollar; formal kiyim kechak, harbiy xizmatchilar.

II. Realialarning milliy va tilga mansublikka ko'ra tasniflanishi :

1. Bir til doirasiga mansub realiyalar:

a) O'z qatlamga oid realiyalar: milliy realiyalar, lokal realiyalar, mikrolokal realiyalar.

b) O'zlashgan qatlamga doir realiyalar; hududiy realiyalar.

2. Bir necha til doirasidagi realiyalar:

a) Ichki realiyalar.

b) Tashqi realiyalar.

III. Realialarning zamon nuqtayi nazaridagi tasnifi:

a) Zamonaviy realiyalar.

b) Tarixiy realiyalar.

Realialarni tarjima qilish – bu lingvokulturologik muammo sifatida qaraladi, chunki tarjimondan mazmuni saqlab qolish, madaniy konnotatsiyani yo'qotmaslik va uning o'quvchiga tushunarli bo'lish talab etiladi. D. Rahmonov "Reallik va realiya tushunchalari til va tarjima jarayonida nafaqat semantik, balki lingvomadaniy yondashuvni talab qiladi" deb ta'kidlaydi[5]. Realialarni tarjima qilishda eng muhim masala – ularning semantik yoki milliylik koloritini saqlab qolishdir. Tarjima jarayonida bu borada turli yondashuvlardan foydalanadilar: transkripsiya, izohli tarjima, ekvivalent qidirish yoki adaptatsiya. Masalan, o'zbek tilidagi "palov", "chopon", "sufa" kabi so'zlar boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ma'no jihatidan to'liq aks ettirilmaydi. Ular tarjimada transliteratsiya, izoh, transkripsiya yoki madaniy moslashtirish orqali qayta tiklash mumkin. Albatta, har bir usulning o'z o'rnida afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, tanlov matnning janri, maqsadi va auditoriyasiga bog'liq bo'ladi. Realialarni quyidagi usullar orqali tarjima qilish mumkin:

1. Transkripsiya va transliteratsiya – masalan, chapana, lagman, Bukhara

2. Izohli tarjima – masalan, "kelin salom (a traditional Uzbek bride's greeting)"

3. Analog topish – ayrim hollarda o'xshash milliy hodisa bilan almashtirish

4. Tushirib yuborish yoki umumlashtirish – ba'zan zarurat bilan qo'llanadi

Ushbu maqolada biz tahlil qilayotgan "Mehrobdan Chayon" romanining qahramonlari bo'lgan Anvar, Ra'no, Solih maxdum, Nigoroyim, Sultonali mirzo, Safar bo'zchi, Shahodat mufti, mulla Abdurahmon kabi personajlar qiyofasi xuddi jonlidek ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, asarni o'qish davomida kitobxon salkam yuz yil oldingi davrning ijtimoiy tuzumi, oddiy xalqning yashash tarzi, hattoki urf-odatlarini xususida ham ma'lumotga ega bo'ladi. Demak, ushbu xalqchil romanni yaratishda muallif lisoniy vositalar yordamida o'z xalqining milliy-madaniyatini, urf-odatlarini, tarixini va ijtimoiy tuzumini ochib berishga harakat qilgan. Abdulla Qodiriy yaratgan asarlarda milliylik ruhi mavjud. Chunki "Mehrobdan Chayon" romanini ko'zdan kechirar ekanmiz, yozuvchi tomonidan milliylikni ifoda etishga xizmat qiluvchi realialardan mohirona foydalanilganini

ko 'rishimiz mumkin. Shuningdek, qahramonlarning tili, muallifning nutqi ham mohirlik bilan o'ziga xos uslubda tasvirlangan. Asar qahramoni Ra'noning soch o'rumlari, Anvarning beshikka belanishi, Nigoroyimning o'choq boshida ovqat tayyorlashi, maxdumning sallani qoziqqa ilish tasviri, Gulshanning paranjida kelishi, mulla Abdurahmonning Ra'noga sovchi qo'yishi, Tunqotarning fohihaga qo'l ochishi kabi realiyalar o'zbek xalqiga xos bo 'lgan milliy madaniyatni ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Yuqorida realiyalarga berilgan izohlar va ta'riflarga asoslangan holda Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanida uchraydigan o'zbek milliy-madaniyatini namoyon etgan realiyalarning ayrimlarini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

" - Yo 'q, - dedi **maxdum sallasini qoziqqa ila-ila,-bir manti qilayliq,-dedim,-manti yeganimizga ko'b bo'ldi, vallohi a'lam...**" (Mehrobdan Chayon.2023.7-bet.)

Asliyat matnida keltirilgan ushbu jumalarda maxdum,salla, qoziq, manti,vallohi a'lam so'zlari o'zbek milliy madaniyatini ifodalashga xizmat qiluvchi realiyalar hisoblanadi. Maxdum-laqabni ifodalovchi,salla esa kiyim kechakni ifodalovchi; qoziq-predmet xarakteriga ko'ra;manti-milliy taom; vallohi a'lam- diniy realiya hisoblanadi. Tarjimon tomonidan ingliz kitobxoniga quyidagicha yetkaziladi:

"-No,-**Mahdum** replied putting his **salla** on to the **peg**, -Cook **manti** today, - he said, -It has been a long time ago when we last had **manti...**"(Scorpion from the Altar.2019.p-8.)

Original matn bilan tarjima matni tahlil qilsak, mahdum,salla,manti realiyalarini g'arb kitobxoniga yetkazishda tarjimon tomonidan transliteratsiya usulidan foydalaniq qayta yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Vallohi a'lam diniy realiya esa tarjima matnida tushirib qoldirilganini ko'rishimiz mumkin.

"Ra'no **havli** yuzida ikkita ukasining o 'rtasiga tushib, ularning **loy o'yunig'a** ishtirok etar, yer supurib yotqan **soch o'rumlarining** tuproqqa belashkanidan xabarsiz edi."(Mehrobdan Chayon.2023.6-bet.)

Ra'no was playing **the clay game** with her two brothers and she did not notice that her hair was touching the mess.(Scorpion from the Altar.2019.p-6.)

Asar matnidani keltirilgan ushbu parchada havli, loy o'yunig'a, soch o 'rumlari kabi milliylikni ifodalovchi realiya birliklarni ko'rishimiz mumkin. Tasniflanishiga ko'ra havli- o'zbek millatiga xos bo'lgan turar joyi; loy o'yuni – ma'lum madaniyatga xos bo'lgan o'yin nomi; soch o'rumlari – kundalik hayotga oid bo'lgan realiyalar hisoblanadi.Lekin tarjima matnida esa bunday milliy madaniyatni aks ettiruvchi realiyalarning tushurib qoldirilganligi, natijada esa adekvat tarjimaga erishilmagani, to'liqsiz tarjima amalga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki havli –so'zi o'zbek oilalari istiqomat qiluvchi uyni anglatsa, "soch o'rumlari" birikmasi orqali asar qahramoni Ra'noning o'zbek millatiga mansub ekanligini ifodalab beruvchi ma'no asar tarjimasida yetkazib berilmagan.

"-Qulliq, rahmat, **pushti panohning** davlatlari ziyoda bo 'lsin,-dedi **maxdum** uzoq sukutdan bosh ko 'tarib.(Mehrobdan Chayon.2023- 219 b.)

-Thank you, may the khan's richness increase,-said **mahdum** after a long science.(Scorpion from the Altar.2019.p-199.)

Yozuvchi tomonidan asarda keltirilgan ushbu jumlada pushti panoh, maxdum kabi o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan leksemalarni ko'rishimiz mumkin. Pushti panoh- bir til doirasiga mansub realiyalar guruhiga kirsas, maxdum leksik birligi esa etnik birliklarni ifodalovchi realiyalarning laqablar turiga kiradi.mazkur realiyalar ingliz tilida qayta tiklash jarayonida maxdum-laqabni ifodalovchi leksik birlik transliteratsiya usulidan foydalanilgan bo'lsa, pushti panoh leksemasi esa analog toppish usuli bilan amalga oshirilgan.

XULOSA

O'z xalqining milliyligini namoyon etgan yozuvchi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanida realiyalarning qo 'llanishidan asosiy maqsad milliy madaniyat, ma'rifat va milliylik xususiyatlarini aks ettirishdir. Shuningdek, realiyalar orqali badiiy asar tasviri yanada boyitilgan.Tarjima jarayonida esa tarjimon tomonidan qo'llangan usullar ingliz kitobxoniga o'zbek xalqi milliy urf- odatlar, qadryatlari, turmush tarzi xususida tasavvur olamini kengaytirishga yordam bergan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. – М., 1986.
- 2.Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968.

TILSHUNOSLIK

3. Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988.
4. Соболев Л. Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952.
5. Til va tarjima masalalari, "Til va adabiyot" jurnali, 2021, №4
6. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan Chayon. 2023.
7. I.M.To'xtasinov, U.R.Yo'ldoshev, A.A.Hamidov. Scorpion from the Altar. 2019.